

# **AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

**Z.X. Xoshimjonova**

**University of Bussines and Science o‘qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062975>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aholi daromadlarini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, uning bandlikni ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada Germaniya, Xitoy, Hindiston, Italiya kabi davlatlarning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ilg‘or tajribalari chuqr o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induktiv va deduktiv yondashuvlar asosida xulosa chiqarilgan. O‘zbekistonning mavjud imkoniyatlari, hududiy xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holati inobatga olingan holda amaliy takliflar ilgari surilgan. Xususan, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari, arzon kreditlar, kasbiy o‘qitish va konsalting xizmatlari tizimini yo‘lga qo‘yish muhimligi asoslab berilgan.Maqola natijalari asosida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali aholi daromadlarini ko‘paytirish, mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkinligi xulosa qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Oilaviy tadbirkorlik, aholi daromadlari, xorij tajribasi, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish, kichik biznes, soliq imtiyozlari, yoshlar va ayollar bandligi, davlat qo‘llab-quvvatlovi, xalqaro tajriba, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – aholining turmush darajasini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash hamda kambag‘allikni kamaytirishdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishishda oilaviy tadbirkorlik muhim vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, bandlikni ta’minalash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda oilaviy biznesning o‘rni beqiyosdir.

Oilaviy tadbirkorlik – bu bir oilaning a’zolari tomonidan tashkil etilgan, ko‘pincha kichik miqyosdagi biznes shakli bo‘lib, u iqtisodiy faoliyat bilan bir

qatorda ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali nafaqat aholi bandligi, balki daromad manbalari ham kengayadi, mehnat bozoridagi bosim kamayadi va iqtisodiy o'sish sur'atlari oshadi. Xususan, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu mamlakatlarda oilaviy biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari, kredit qo'llab-quvvatlovleri, konsultatsion xizmatlar va zarur infratuzilma yaratilgan. Bunday tajriba esa boshqa davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi tajribalar tahlil qilinadi hamda ushbu modelni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik orqali aholi daromadlarini oshirishga erishishning samarali yo'llari ko'rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotda ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishda xorijiy tajribaning o'rni o'rghanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tahlil, qiyoslash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, sistemali yondashuv hamda empirik usullar qo'llanildi. Birinchidan, tahlil usuli orqali oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, uning aholi farovonligini oshirishdagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri chuqr o'rghanildi. Bu orqali oilaviy biznes faoliyatining afzallikkari, imkoniyatlari va muammolari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil (komparativ) usuli yordamida bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Italiya va boshqalar) oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlari, yondashuvlari va amaliy natijalari O'zbekiston sharoiti bilan solishtirildi. Ushbu metod xorijiy tajribaning ijobiy jihatlarini aniqlab, ularni milliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Uchinchidan, induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiyl va xususiy xulosalar chiqarildi. Xususan, xorijiy tajribadagi alohida misollar asosida umumiyl

strategik yondashuvlar ishlab chiqildi, yoki aksincha, umumiy nazariy qarashlar asosida amaliy yo‘nalishlar aniqlashtirildi.

To‘rtinchidan, statistik tahlil usuli orqali xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, XMT, OECD, ILO va boshqalar) va ayrim davlatlarning rasmiy statistika organlari tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlar asosida oilaviy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu raqamlar asosida oilaviy biznesning aholi daromadlariga bo‘lgan ta’siri aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, sistemali yondashuv asosida oilaviy tadbirkorlikni davlat siyosati, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq tizimi, bozor infratuzilmasi va mehnat bozori bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilishga alohida e’tibor qaratildi. Yakunda, empirik usul asosida O‘zbekiston sharoitida oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyati, mavjud muammolar va imkoniyatlar amaliy misollar orqali o‘rganildi va tahlil qilindi. Bu esa xorijiy tajribani O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy muhitiga moslashtirish imkonini berdi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar, nazariy va empirik tahlillar, shuningdek xorijiy tajribaning o‘rganilishi asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Oilaviy tadbirkorlik – iqtisodiy barqarorlik va daromad manbai sifatida Tadqiqot davomida oilaviy tadbirkorlikning nafaqat kichik va o‘rta biznesning tarkibiy qismi, balki aholi daromadlarini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Oilaviy tadbirkorlik ishsizlikni kamaytirish, ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, u barqaror va uzoq muddatli daromad manbai sifatida o‘zini oqlaydi.

Xorijiy tajribada oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash samarali mexanizmlari mavjud. Germaniya, Italiya, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar tajribasida oilaviy biznesni rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlarning samaradorligi tasdiqlandi:

- Qulay soliqqa tortish tizimi;
- Arzon va uzoq muddatli kreditlar;
- Bepul maslahat va trening xizmatlari;
- Oilaviy biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishda soddalashtirilgan tartiblar;

- Mahalliy infratuzilma va bozor bilan bog‘lanish imkoniyatlari.

O‘zbekiston sharoitida xorijiy tajribani qisman moslashtirish mumkin Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xorijiy davlatlar tajribasining hammasini to‘liq qabul qilish emas, balki o‘zbek jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan yondashuv muhimdir. Xususan, O‘zbekistonning qishloq joylarida aholining ko‘p qismi oilaviy tadbirkorlik bilan norasmiy tarzda shug‘ullanadi. Bu faoliyatni rasmiylashtirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali daromadlar hajmini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Ayollar va yoshlar ishtirokini kengaytirish orqali iqtisodiy faollik oshadi. Ko‘plab xorijiy tajribalarda ayollar va yoshlarning oilaviy tadbirkorlikdagi faolligi yuqori darajada bo‘lib, ular uchun maxsus grantlar, treninglar va inkubatsiya markazlari faoliyat yuritadi. Bu modelni O‘zbekistonda ham joriy etish orqali aholining eng faol qatlami iqtisodiy hayotga jalb qilinishi mumkin.

Mahalliy o‘ziga xosliklar asosida rivojlanish modeli ishlab chiqilishi zarur Har bir hududning iqtisodiy salohiyati, madaniy qadriyatları va mehnat resurslari hisobga olingan holda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish muhimligi aniqlandi. Xususan, turizm, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda oilaviy biznes uchun katta salohiyat mavjud.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy tadbirkorlik uchun maxsus qonunchilik, soliq imtiyozlari va soddallashtirilgan hisobot yuritish tizimi mavjud bo‘lgan davlatlarda bu yo‘nalish tezroq va samaraliroq rivojlanadi. O‘zbekistonda bu borada ilgari surilgan tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, ular tizimli yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot davomida olingan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy tadbirkorlik – nafaqat aholi daromadlarini oshirishda, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda va bandlikni kengaytirishda muhim rol o‘ynovchi omil hisoblanadi. Xususan, xorijiy mamlakatlar tajribasi oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlashda puxta strategik

yondashuvlar, samarali mexanizmlar va davlat siyosatining muhimligini yaqqol namoyon qildi.

Rivojlangan mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikka ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ajralmas qismi sifatida qaraladi. U yerda bu soha uchun qulay muhit yaratilgan: soliqqa tortish soddalashtirilgan, kreditlar va grantlar tizimi mavjud, o‘quv-konsultatsiya xizmatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, mahalliy infratuzilmani oilaviy biznes ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirish orqali bu sohada natijadorlikka erishilgan.

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ko‘plab dolzARB muammolarni hal etish mumkin.

Jumladan:

- ishsizlik darajasini pasaytirish;
- kambag‘allikni qisqartirish;
- mahalliy ishlab chiqarishni faollashtirish;
- ayollar va yoshlarning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish.

Ammo, mavjud real holat shuni anglatadiki, bu borada tizimli yondashuv, huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlov mexanizmlarining kengaytirilishi zarur. Xususan, ko‘plab oilaviy tadbirkorlar hali ham norasmiy ishlamoqda, ularning faoliyatini qonuniylashtirish orqali rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish mumkin. Bunda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, xorij tajribasi asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash vositasidir.
- Har bir mamlakat uchun yagona model emas, balki milliy xususiyatlarga moslashtirilgan yondashuv samarali hisoblanadi.
- O‘zbekiston sharoitida mavjud resurslar, demografik omillar, mehnat bozorining holati va hududiy farqliliklar inobatga olingan holda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.

-Ayollar va yoshlar uchun oilaviy tadbirkorlikni boshlashda alohida imtiyozlar va rag‘batlantiruvchi choralar ko‘rilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali nafaqat aholi daromadlarini oshirish, balki mahalliy iqtisodiyotning umumiyligi salohiyatini kuchaytirish, barqarorlikka erishish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlash mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish bo‘yicha farmon va qarorlari. (2020–2024 yillar).
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari – [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari – [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
4. International Labour Organization (ILO). *Decent Work and the Informal Economy* – Geneva: ILO Publications, 2020. – [www.ilo.org](http://www.ilo.org).
5. World Bank. *World Development Report: Jobs and Economic Transformation*. – Washington D.C.: World Bank, 2021. – [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).
6. Food and Agriculture Organization (FAO). *Family Farming Knowledge Platform*. – [www.fao.org/family-farming](http://www.fao.org/family-farming).
7. Asian Development Bank (ADB). *Promoting Micro and Family-Based Enterprises in Asia*. – Manila: ADB, 2022.
8. Kariev A.K. “Oilaviy tadbirkorlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik” // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-amaliy jurnali. – 2023, №3.
9. Xodiev R.X., Saydahmedov S.S. *Tadbirkorlik asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
10. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). *Supporting Entrepreneurship and Innovation in Rural Areas*. – Paris: OECD Publishing, 2020.

11. UNDP Uzbekistan. *Empowering Women through Family Entrepreneurship*. – Tashkent: UNDP, 2021. – [www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org).
12. Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development* (12th edition). – Pearson Education, 2020.